

IJTIMOYIY USTANOVKALAR SHAKLLANISHINING KOMPONENTLARI

Bekbolayev Javlonbek Jumanazar o'g'li
GulDu doktoranti
Guliston davlat pedagogika insituti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish shaxsning muhim jihati bo'lib, insonga o'z xulq-atvorini boshqarish imkonini beradi. Ijtimoiy ustanovkalarni adekvat shakllantiruvchi shaxs o'z hislarini aql izmiga bo'ysundirish, turli ko'rinishdagi vaziyatlarda aniq qaror qabul qilish kabi xususiyatlarga ega bo'ladi. Bundan tashqari, ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish orqali sub'yekt ijtimoiy- emotsional holatini nazorat qilib turadi.


Kalit so'zlar: Ijtimoiy ustanovka,Shakllanish jarayoni,Kognitiv komponent
Emotsional component,Behavoral component,Shaxslararo munosabat,
Sotsializatsiya.


Kirish

O'rganilgan ilmiy manbalar asosida talaba-yoshlarda quyidagi xususiyatlarning ustunlik qilinishi tadqiqotimizning psixokorreksion dasturini yaratishda quyidagi mezonlar asos sifatida xizmat qildi:

- bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni egallashdagi individuallik;
- faoliyatda individual uslubning namoyon etilishi;
- kasbiy motivatsiyaning ustuvorligi;
- ma'naviy ehtiyojning, barqaror qiziqishning qat'iy yetakchiligi;
- ijtimoiy-psixologik munosabatlarning shaxsiy pozitsiyaga bo'ysunganligi;
- oliy ta'lim muhitining talaba shaxsiyatida ifodalanishi;
- amaliyotga va muhitga moslashishning ijtimoiy-psixologik omillari.

Talaba-yoshlardagi ushbu xususiyatlar orqali biz olingan dastlabki empirik ma'lumotlar asosida psixokorreksion ishlarni olib bordik.





3.2.2-rasm. Talabalarda ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirishning asosiy psixologik komponentlari

Xulosa

Talabalarda olib borilgan psixokorreksion ishlar davomida to'plangan ma'lumotlarga asoslanib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Shaxsning emotsional holatlarda ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish imkoniyatlarini kuchaytirish bevosita individual-psixologik xususiyatlarning rivojlantirilishi bilan bog'liq bo'ladi.

2. Faoliyat jarayonida ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish ijtimoiylashuv jarayonida ijtimoiy ustanovkalarni rivojlantirish bilan uzviy aloqadorlikka ega, chunki muayyan darajadagi ijtimoiylashuv jarayonida ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish imkoniyati kuchayadi yoki aksincha, pasayish holati kuzatiladi.

3. Emotsional holatlarda ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish metodikasi bo'yicha tajriba va nazorat guruhlaridan olingan empirik natijalar orasida ishonchlilik darajasi mavjud ekanligi aniqlandi. Jumladan, trening natijalaridan so'ng talaba-yoshlarda ijtimoiylashuv jarayonida ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish jarayoni nisbatan yuqori ekanligi kuzatildi.

4. Talaba-yoshlarda ijtimoiy ustanovkalarni rivojlantirishga qaratilgan motivatsion tizimga alohida e'tibor qaratish zarur bo'ladi. Ijtimoiy ustanovkalarniga xos tarzda shakllanuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni tizimli tarzda tahlil qilish va o'rganish asosida tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Баротов Ш.Р и др. Психологическая служба образования: от теории к практике. (Учебно - методическое пособие). – Бухара: Дурдона, 2017. – 172 с.
2. Barotov Sh.R O‘quvchi shaxsi va sinf jamoasini psixologik tahlil qilish usullari. – Vuxoro, 1993. – 29 b.
3. Бернштейн Х.А. Очерки по физиологии движений и физиологии активности. - М.: Медицина, 2003. – 349 с.
4. Бехтерев В.М. Нейрофизиологические аспекты психической деятельности. – Л.: Медицина, 2006. – 119 с.
5. Бодалев А.А. Личность и общение. Избранные труды. – М.: Педагогика, 2005. – 271 с.